



UDK: 74.4.1.12.5

*Salimjon EVATOV,*

*Dotsent, Farg'ona davlat universiteti*

*E-mail: alfargoniy.uz@gmail.com, ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-4506-8581>*

*Farg'ona davlat universiteti I.Siddiqov taqrizi ostida*

### MARKAZIY OSIYODA TASAVVUF TA'LIMOTINING SHAKLLANISHIDA DINIY-FALSAFIY QARASHLAR

Аннотация

Ushbu maqolada Markaziy Osiyoda tasavvuf falsafasining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan diniy, aqidaviy va falsafiy omillar tahlil qilinadi. Xususan, islomning mintaqaga kirib kelishi, mahalliy madaniy muhit, yunon falsafasi, kalam ilmi hamda mo'taziliylar, xorijiyalar, shialar, botiniylar kabi aqidaviy oqimlarning tasavvufiy tafakkur rivojiga ta'siri ilmiy jihatdan yoritiladi. Shuningdek, zohidlik harakatining tasavvuf ta'limotiga aylanish jarayoni, uning gnoseologik va ontologik asoslari ham tadqiq etiladi. Maqolada Markaziy Osiyoning ilmiy-madaniy muhiti tasavvuf falsafasi rivojidadagi muhim omillardan biri sifatida baholanadi.

**Kalit so'zlar:** Tasavvuf, Markaziy Osiyo, zohidlik, kalam, mo'taziliylik, aqidaviy oqimlar, islom falsafasi.

### РОЛЬ РЕЛИГИОЗНО-ФИЛОСОФСКИХ ВЗГЛЯДОВ В ФОРМИРОВАНИИ СУФИЙСКОГО УЧЕНИЯ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Аннотация

В данной статье анализируются религиозные, догматические и философские факторы, повлиявшие на формирование философии суфизма в Центральной Азии. В частности, научно освещаются влияние распространения ислама в регионе, местной культурной среды, греческой философии, науки калама, а также таких религиозно-догматических течений, как мутазилизм, хариджизм, шиизм и батинизм на развитие суфийского мышления. Кроме того, рассматривается процесс трансформации аскетического движения в суфийское учение, а также его гносеологические и онтологические основы. В статье научно оценивается роль научно-культурной среды Центральной Азии в развитии философии суфизма.

**Ключевые слова:** Суфизм, Центральная Азия, аскетизм, калам, мутазилизм, догматические течения, исламская философия.

### THE ROLE OF RELIGIOUS AND PHILOSOPHICAL VIEWS IN THE FORMATION OF SUFI DOCTRINE IN CENTRAL ASIA

Annotation

This article analyzes the religious, theological, and philosophical factors that influenced the formation of Sufi philosophy in Central Asia. In particular, it scientifically examines the impact of the spread of Islam in the region, the local cultural environment, Greek philosophy, the science of Kalam, and theological movements such as Mu'tazilism, Kharijism, Shi'ism, and Batiniyya on the development of Sufi thought. The study also explores the transformation of ascetic movements into Sufi doctrine, as well as its epistemological and ontological foundations. The article evaluates the scientific and cultural environment of Central Asia as one of the major factors in the development of Sufi philosophy.

**Key words:** Sufism, Central Asia, asceticism, Kalam, Mu'tazilism, theological movements, Islamic philosophy.

**Kirish.** Islom dini Markaziy Osiyoga kirib kelganda bu yerlardagi yuksak rivojlangan sivilizatsiya bilan to'qnash keldi. Bu madaniyatga qadimgi Yunoniston, Hindiston, Parfiya, Eron, Xitoy va boshqa mahalliy madaniyatlarning o'zaro sintezlashuvi muhim omil bo'lgan. Chunki, Markaziy Osiyo sharqdan Xitoy va Hindiston, g'arbdan Kichik Osiyo va Yevropagacha bo'lgan hududlarni bog'lovchi ko'priklar bo'lib, qo'shni davlatlarning ilm-fan va madaniy yutuqlaridan bahramand bo'lgan. Xorazmda qadimdan davlatchilik an'analar shakllangan bo'lib, u o'zining qadimiy madaniy ildizlariga ega bo'lgan. Arablar kirib kelishiga qadar mintaqada xorazm, sug'd, shuningdek, o'rxun yozuvlari mavjud edi. IX asrda mintaqadagi aniq fanlar rivoji Xorazm, Sug'd, Marg'iyona va Baqtriya kabi iqtisodiy rivojlangan hududlardagi mavjud milliy an'analar asosida taraqqiy topgan [1]. Hududdagi ilmiy bilimlar islom madaniyati bilan qo'shilishi natijasida yanada rivojlandi.

**Materiallar va metodlar.** Yuqoridagi omillarning barchasi Markaziy Osiyoga islom kirib kelgandan so'ng tez fursatda buyuk allomalarning yetishib chiqishiga sabab bo'ldi.

Xorazm, Buxoro, Samarqand, Marv, Balx kabi shaharlardagi madaniy rivojlanish natijasida Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Mansur ibn Iroq, Muhammad Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oni, Abu Mash'ar Balxiy, Ahmad ibn Abdulloh Marvaziy, Abu Bakr Roziy, Yahyo ibn Mansur kabi allomalar yetishib chiqdi va ilmiy bilimlar rivojiga o'z hissalarini qo'shdilar.

Markaziy Osiyo xalqlari qisqa vaqt ichida ko'plab allomalar yetishtirib berganini Fozila Sulaymonmova ikki sabab bilan izohlaydi. Birinchidan, qadimdan boshlab zardushtiylik dini asosida yashab kelayotgan xalqlar yunon bosqinini boshidan o'tkazgan va ellinizm davrida yunon madaniyati keng tarqalgan bo'lib, ular bu madaniyat bilan arablardan oldin ham tanish edi, degan xulosaga kelsa, ikkinchi tomondan, arablar kelguniga qadar Markaziy Osiyoda yirik madaniy markazlar, ayniqsa Xorazm madaniyatining mavjud bo'lganligiga e'tiborni qaratgan [2].

Bundan tashqari, Movarounnahr va Xuroson hududlarida yahudiylar, xristianlar, zardushtiyalar, buddaviylar, Sug'd hududlarida monaviylar yashagan [3]. Ko'p

tadqiqotchilar tasavvuf ta'limotlariga mahalliy e'tiqodlarning ham ma'lum ma'noda ta'siri bo'lganligini e'tirof qilishadi. Masalan, Aleksandr Knish ma'lumotiga ko'ra, Hotam Asammga ustozlik qilgan Shaiq Balxiy buddaviylik rohibi bilan uchrashgandan keyin zuhd yo'lga kirgan [4]. Annamari Shimmel esa, bu hududlarda tarqalgan islomiy va buddaviy qissalardagi o'xshashliklarga e'tibor qaratgan. Shuningdek, so'fiylar buddaviy zohidlik tajribasi bilan yuzma-yuz kelganliklari va ayrim so'fiylarning moniylik diniga ko'rsatgan mayllari tufayli tanqidga uchraganliklarini eslatib o'tadi [5]. Bundan tashqari so'fiylarning g'ozilyardan bo'lgan qatlami (masalan, Shaiq Balxiy, Hotam Asamm, Abu Turob Naxshabiylar) g'ayrimusulmon xalqlariga qarshi kurashda qatnashganliklari [6] o'z-o'zidan boshqa din va e'tiqodlar tajribalari bilan to'qnash kelganliklarini ko'rsatdi.

**Muhokama va natijalar.** Markaziy Osiyo hududlarida tasavvuf ta'limotiga o'xshash g'oyalalar boshqa din va madaniyatlarda ham mavjud. Bularga Hind diyorida shakllangan brahmanlik, Misrda Germes so'zlari, antik dunyo Yunon madaniyatida Pifagor, Suqrot va Aflotun qarashlari, yahudiylkda kabbalizm va xristianlikda mistitsizm g'oyalari kiritish mumkin. Ularda ham inson ruhiy quvvatini uyg'unlashtirish, g'ayrishi'riy bog'lanishni amalga oshirish masalalari va insonni ruhiy kamolotga eltish yo'llari ko'rsatib berilgan [7]. Shu ma'noda tadqiqotchilar tasavvuf ta'limoti bilan ushbu g'oyalarning hamohangligiga e'tibor qaratishgan.

Xalifalik hududini kengaytirish va islomni yo'yish maqsadida olib borilgan fathlar natijasida juda ko'p davlatlar islom bayrog'i ostida birlashtirildi. Ko'p asrlardan buyon boshqa din va e'tiqodlarga amal qilib kelgan bu jamoalar islom dinini qabul qilishgan bo'lsa-da, ularning ko'p qismi otobobolaridan qolgan ba'zi xurofiy tushuncha va g'oyalardan voz kecha olishmadi. Ayniqsa, Movarounnahr hududida turkiylar, forslar, yahudiylar, nasroniylar, qisman arab xalqlari yashar edi. Ular orasida millatchilik paydo bo'lib, zindiq toifalar yuzaga chiqqan boshladi. Ular sirdan musulmon bo'lib ko'rinsa ham, ichida moniylik, zardushtiylik va mazdakiylik aqidalariga ishonar edilar [8]. Ularning fikrlariga qarshi mutakallim ulamolalar kitoblar yozish, bahslar olib borish va raddiyalar berishga harakat qilishgan.

Ummaviylar davridayoq ilm-fanni rivojlantirishga bo'lgan harakatlar boshlangan edi. Ko'pgina suryoniy olimlar, masalan, Ya'qub Ruhaviy (640–702 yy.), Jirjis Usquf va boshqalar xalifa saroyida xizmat qilardi [9]. Abbosiylar davrida, xususan, xalifa Ma'mun davriga kelib, bu ishlar davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan edi. Dastlab aniq fanlarga oid kitoblar tarjima qilinib, ular ilm-fan rivojiga hissa qo'shardi. Ularda islom an'analari zid keluvchi g'oyalalar kamdan-kam uchrardi. Keyinchalik falsafa va metafizikaga oid kitoblar ham tarjima qilina boshlangan. Ziyoli toifaning aksar qismi bu ilmlardan ta'sirlangan va ular asosida islom aqidasi o'z falsafiy qarashlarini tarqata boshlagan. Ushbu qarashlar zaminida xorijiyalar, karroniylar, mo'taziliylar, murji'alar, qadariylar, jabriylar, botiniylar kabi turli diniy-aqidaviy, siyosiy oqimlar vujudga keldi. Ular ko'proq Qur'on va sunnatga emas, falsafaga asoslangan bahs va tortishuvlar olib borardi [10]. Ular islomdagi ba'zi aqidaviy masalalarda o'z qarashlarini ifodalay boshlaganlar. Ularning ontologik va gnoseologik qarashlari an'anaviy islom ta'limotlaridan farq qilardi.

Masalan, xavorijlar – dastlabki islomdan ajrab chiqqan toifalardan bo'lib, "Tahkim" [11] voqeasidan keyin paydo bo'lgan. Bu firqa turli guruhlar bo'linib ketgan va ulardan hozirga "Iboziya" firqasigina saqlanib qolgan. Ular Qur'on-sunnatdagi aqidaviy masalalardan tortib siyosiy masalalargacha muhokama qilganlar. Xavorijlar aqida va g'ayb ilmlariga oid masalalarda aql qabul qiladigan jihatlarinigina qabul qilishadi.

Alloh taoloning sifatleri haqidagi "mutashobih" (bir-biriga zid ikki xil ma'no ehtimoli bor) oyatlarni ta'vil qilishga, ya'ni aql qabul qiladigan ma'noga o'tkazishga urinadilar [12].

Mo'taziliylar – VIII asr boshlarida alohida toifa bo'lib ajrab chiqdi va xalifalikning g'arbu sharqiga tarqay boshladi. Turli millatlarning islomni qabul qilishi bu jarayonni tezlashtirdi. Ular yunon falsafasi va mantiq ilmi sababidan dini tushunishda asosiy manba aql, degan xulosaga kelishgan bo'lib, ularning g'oyalari besh asosga tayanadi.

Ular Allohning hukmi haqida fikr yuritib, Alloh gunoh ishlarni yaratib, so'ngra gunohkorlarga jazo bersa, zulm qilgan bo'ladi, deya Allohning odilligi haqida fikr yuritganlar.

Allohning tavhidi – yakkaligi haqida fikr yuritib, uning sifatlerini inkor qilishgan, ya'ni Allohning sifatleri zohir bo'lsa, uning tavidiga nuqson yetadi.

Allohning mukofoti – va'd va jazosi – va'iydning bo'lishi shartligi haqida gapirib, Alloh taolo gunohi kabira qilganlarni kechirmasligi haqidagi fikrlarni aytishgan.

Iymon va kufr o'rtasida oraliq manzil borligini aytishib, gunohi kabira qilganlar shu manzilda bo'lishini ta'kidlashgan.

Amri ma'ruf va nahyi munkar haqida mulohaza bildirib, agar imomlar jabr qilsalar, ularga qarshi urush qilish mumkinligi haqidagi bid'at fikrlarni tarqatishgan [13].

Bu aqidaviy oqimlarning tasavvufga bevosita ta'siri haqida turli fikrlar mavjud. Ye. E. Bertels Vosil ibn Ato va Amr ibn Ubaydlarning zohid bo'lganliklarini ta'kidlash orqali mo'taziliylikning tasavvufga katta ta'sir o'tkazganligini ta'kidlaydi [15]. Tadqiqotchi K. Rahimov bu fikrni ma'qullamaydi va mo'taziliylik va so'fiylik o'rtasidagi g'oyaviy qarama-qarshiliklarni sabab qilib ko'rsatadi [16]. Tarixchi Maqdisiy esa karroniylarni kalom, fiqh bilimdoni bo'lish bilan birga "zohid va taqvodor kishilar" sifatida eslatadi [17]. J. S. Trimingem esa so'fiylar xonaqoh institutini karroniylardan namuna olganligi haqidagi ehtimolni keltiradi, lekin karroniylar so'fiylikni yoqlamaganliklari uchun ularning tasavvufga ta'siri borligi haqida fikr yuritishdan saqlanadi [18].

Markaziy Osiyoda ham o'sha davrda turli aqidaviy oqimlar va diniy konfessiyalar mavjud bo'lgan. Shuningdek, bu hududda islom dinidan boshqa dinlar vakillari ham istiqomat qilar edi. Somoniylar davlati islom ilmlarining rivojlanishida katta homiylik ko'rsatish bilan birga turli aqidaviy jamoalar va boshqa dinlarga mansub guruhlar ham bemalol yashab faoliyat ko'rsatgan diniy bag'rikeng davlat sifatida ham mashhur bo'lgan [19]. Nishopurda shialar, mo'taziliylar, karroniylar, Hirot va Seyistonda xorijiyalar, Xurosonda qadariylar, Termizda jahmiylar jamoalari mavjud edi [20].

**Xulosa.** Zohidlikning dastlabki shakllanish davrida hali Allohga nisbatan mistik muhabbat va borliqning birligi (vahdat ul-vujud) ta'limoti kirib kelmagan [21] bo'lsa-da, keyingi nazariy va amaliy asoslarga ega zohidlik davrida so'fiylikning keyingi davrlaridagi hollarga asos bo'lgan tavba, tavakkul, rizo, muhabbat, huzn, xavf, rizo kabi g'oyalalar shakllangan.

Islom dini dunyoviy ilmlarni o'rganishni man etmagan, balki ularga muqobil ravishda islom ilmlarining mohiyatan teranligini isbotlashga qaratilgan g'oyalarni ishlab chiqishga harakat qilgan. So'fiylar islomiy an'analardoirasidagi bu g'oyalarga yangicha talqin qo'shish bilan birga ulardagi ba'zi g'oyalalar aqidaviy oqimlarga qarshi muqobil islomiy g'oya sifatida shakllandi. Ayniqsa, ikki o'rtada bahslar keltirib chiqqan g'oyalardan biri – taqdir masalasidir. Oyat va hadislarda qazo-qadar ishlarida zohiran insonni majburlash va tanlash erkinligining berilganligi haqidagi ma'nolar mavjudligi ko'pgina oqimlarga bu mavzularda o'z qarashlarini ifodalashga imkon yaratdi. Masalan, bu oqimlarning taqdir haqidagi qarashlariga qarshi o'laroq tasavvufda "rizo" g'oyasi shakllandi. Bu g'oya VIII asr oxirlaridayoq Markaziy Osiyo

zohidlaridan biri bo'lgan Fuzayl ibn Iyozning tasavvufiy qarashlarida ko'zga tashlanadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Abduhalimov B.A. "Bayt al-hikma" va Markaziy Osiyo olimlarining Bag'doddagi ilmiy faoliyati. (IX-XI asrlarda aniq va tabiiy fanlar). Mas'ul muharrir M.M.Xayrullayev. – Toshkent: "O'zbekiston", 2010. – B. 11.
2. Sulaymonova F. Sharq va g'arb (qadimiy va o'rta asrlar madaniy aloqalari). – Toshkent: "O'zbekiston" – B.193.
3. Rahimov K. Movarounnahr tasavvufi tarixi: ta'limotning shakllanishi va tizimlashtirilishi (VIII-XI asrlar). – Toshkent: "Akademnashr" 2020. – B.39.
4. Knysh A.D. Musul'manskiy mistitsizm. Kratkaya istoriya / Per. s angl. M.G.Romanov. – SPb.: Dilya, 2004. – S. 39.
5. Shimmel A. Mir islamskogo mistitsizma / Per. s angl. N.I. Prigarinoy, A.S.Rapport, 2-e izd., ispr. va dop. – M.: OOO «Sadra» 2012. – S. 18.
6. Rahimov K. Movarounnahr tasavvufi tarixi: ta'limotning shakllanishi va tizimlashtirilishi (VIII-XI asrlar). – Toshkent: "Akademnashr" 2020. – B. 39-40.
7. Eraydın Selçük. Tesevvuf va tariqatlar. – Istanbul: Marmara universiteti Ilahiyat fakultesi vafi nashrlari. 1994. – S. 45.
8. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hidayat imomi. Imom Abu Mansur Maturidi. – Toshkent: "Hilol-nashr", 2019. – B.21.
9. Sulaymonova F. Sharq va g'arb (qadimiy va o'rta asrlar madaniy aloqalari). – Toshkent: "O'zbekiston" – B.190.
10. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hidayat imomi. Imom Abu Mansur Maturidi. – Toshkent: "Hilol-nashr", 2019. – B.20.
11. Ali roziyallohu anhu va Muaviya roziyallohu anhu o'rtasidagi bitim ahdi.
12. Abdur Rahim Abdulqodir. E'tiqod durdonalari "Bad'ul amaliy" sharhi. – Toshkent: «Sharq» 2016. – B.15.
13. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hidayat imomi. Imom Abu Mansur Maturidi. – Toshkent: "Hilol-nashr", 2019. – B.92.
14. Islom, entsiklopediya. – Toshkent: O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi, 2004. – B.125.
15. Bertels E.E. Sufizm va sufiya adabiyoti. – Moskva: Nauka, 1965. – S.22.
16. Rahimov K. Movarounnahr tasavvufi tarixi: ta'limotning shakllanishi va tizimlashtirilishi (VIII-XI asrlar). – Toshkent: "Akademnashr" 2020. – B.20.
17. Rahimov K. Movarounnahr tasavvufi tarixi: ta'limotning shakllanishi va tizimlashtirilishi (VIII-XI asrlar). – Toshkent: "Akademnashr" 2020. – B.20.
18. Trimming D.J.S. Sufiykiy orderlar v islame. – Moskva: Sofiya. D. Gelios, 2002. – S.307.
19. Rahimov K. Movarounnahr tasavvufi tarixi: ta'limotning shakllanishi va tizimlashtirilishi (VIII-XI asrlar). – Toshkent: "Akademnashr" 2020. – B.39.
20. Rahimov K. Movarounnahr tasavvufi tarixi: ta'limotning shakllanishi va tizimlashtirilishi (VIII-XI asrlar). – Toshkent: "Akademnashr" 2020. – B.39.
21. Nuriddinov M.N. O'rta asrlar sharq falsafiy tafakkuri tarixidan. – Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, Brok Class Servis, 2015. – B.190.
22. Bertels E.E. Sufizm va sufiya adabiyoti. – Moskva: Nauka, 1965. – S.207-208.